

## O'TMISHDAGI JAMOAT BINOLARINING NAQSHLARI

**Tursunova Gulmira**

Mustaqil izlanuvchi

### ARTICLE INFO.

**Kalit so'zlar:** naqsh, jamoat binolari, rang.

### Annotatsiya

O'tmishda qurilgan turar joy va jamoat binolari interyerlarini ko'zdan kechirar ekanmiz, ularning har qaysida mavqe, funksiya, kompozitsiya va zeb-ziyat jihatidan bino tarixining muhim qismida joylashgan bitta yoki ikkita asosiy xonaga ega bo'lganligini, qolgan xonalarning ham naqshu-nigorlari va me'moriy yechimlari ularning funksiyasi va mavqeyiga qarab amalga oshirilganini ko'ramiz.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

O'tmishda ota bobolarimiz qurgan muxtasham binolardagi naqshlar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo'qotmagan, yuksak did bilan ishlangan naqshlar bizni hayratga solib kelmoqda.

Milliy naqshlarimiz g'oyatda boy mazmunga ega. Oddiy qoshiq, lagan, quticha, sandiq, belanchak, cholg'u asboblari, uy ro'zg'or buyumlaridan tortib turar joy va jamoat binolarining devor hamda shiftlariga solingan naqshlar insonni hayratga soladi, uni o'ylantiradi. Bu go'zal naqshlar ajoyib naqqoshlar tomonidan yaratilgan bo'lib, asrlar davomida bunyod topdi, rivojlandi, me'morchilik hamda tasviriy san'at rivoji bilan bog'langan holda takomillashib keldi. Naqsh - arabcha tasvir, gul degan ma'noni anglatadi. U qush, hayvon, o'simlik, geometrik va boshqa elementlarni ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezakdir.

Naqqoshlik tarixi insoniyat madaniyati bilan bir qatorda qadimiydir. Madaniyatning rivojlanishi natijasida rassomlik va naqqoshlik ajralib chiqdi va rivojlandi. Har xil arxeologik qazilmalar shuni ko'rsatdiki, naqqoshlik jahondagi barcha xalqlarda qadimdan mavjud bo'lgan. Chunonchi, Xitoyda, Qadimiy Eronda, Hindistonda va boshqa joylarda naqshning har xil turlarini ko'rish mumkin. Naqqoshlik har bir davlatning o'ziga xos muhitiga, geografik o'rniga, o'lkaning o'simlik dunyosiga ko'ra rivoj topadi. Masalan, arman va gruzinlarda uzum va uzum bargi, shimol xalqlarida archa va har xil xayvonlar, qirg'iz va qozoqlarda mol shoxi, tojiklar va o'zbek xalqlarining naqshlariga qarasak anor, bodom, gullar, qalampir va boshqalarni ramziy naqsh tariqasida ishlatilganligini ko'ramiz. Yevropada barokko, gotika, roman, klassitsizm uslublari har xil davrlarda hukmron bo'lgan. Bu esa o'z o'zidan naqqoshlik san'atining rivojlanishiga ta'sir etgan.

O'zbekiston hududidagi arxeologik qazilmalardan Xorazm, So'g'd, Baqtriya va boshqa viloyatlarda naqsh san'atining rivojlanganligi ma'lum. Buni olimlarimiz Surxondaryo viloyatidagi Fayoztepa (I - II asr), Dalvarzintepa (I-asr) budda ibodatxanolari qazilmalaridan topilgan rasm, naqsh qoldiqlari orqali isbotlab berganlar. Tantanali marosimlarga mo'ljallangan xonalardagi dabdabali rasmlarni ko'rib hayron bo'ladi kishi. Ularning birida devorlarda bazmi jamshid, ov manzaralari hamda diniy rasmlar tasvirlangan bo'lsada, boshqalarida jonli maxluqlar qizil va ko'k ranglar bilan bo'yab tasvirlangan[28,b76].

VII asrning oxiri VIII asrning boshlarida O'rta Osiyoni arablar bosib olishi natijasida qaror topgan islom dini o'zidan oldingi madaniyatning ildiziga bolta urdi. Yangi din hamda yangi g'oya O'rta Osiyo tasviriy san'atiga ta'sirini o'tkazdi. Jonli mavjudotlarni aks ettirish man etildi.

Islom talablariga bo'ysunish oqibatida jonivorlar, parrandalar va odamlarni tasvirlash yo'qolib borib naqqoshlik rivoj topdi. Arab yozuvi o'zlashtirildi. Natijada naqshlar bilan unvonli yozuv (epigrafika) uslubi paydo bo'ldi. Arab yozuvi naqshlar bilan birga chizildi. Arab yozuvi ham bezak, ham duo afsunlar vazifasini bajardi[5,b.32]. Xullas tasviriy san'at rivojlanmaydi. Buning hisobiga xalq amaliy bezak san'ati naqqoshlik hisobiga rivoj topdi.

IX - X asrlarda O'rta Osiyo jamoat binolarida naqqoshlik san'ati g'isht qalab naqsh solish hisobiga yuksak darajada rivojlandi, binolarning ichki tomoniga ganch, yog'och o'ymakorligini qo'llash yuksak rivoj topdi. Ayniqsa maqbaralarning peshtoqlari devor va ravoqlari ganch naqshlar bilan juda nafis bezatildi. Naqshlar murakkablashib bordi. Ularning yangi nusxalarida ramz, tasvirlar, timsol, duo-afsunlar, tasbeh va boshqalar naqadar mo'lligini ko'ramiz. Ramziy naqshlar dunyoda sodir bo'layotgan voqeliklar, tilaklarni aks ettirgan. Har bir chizilgan naqshda o'ziga xos ma'no bo'lgan. Chunonchi o'simliksimon naqsh gulsapsarni olaylik, u osoyishtalik va umr uzoqlik timsoli, "pechak islmiy" naqshi boylik va farovonlikni, novda va yaproqlar esa to'kinchilik hamda bahor chog'ida uyg'onishni bildiradi [14,6.61]. Musavvirning tasvirlari bu uning ona tabiatga bo'lgan muhabbatini bildiradi, uning ranglari o'ziga xos ma'no va xarakterga ega. Naqsh o'zbek madaniyatining hamma bosqichlarida hamrox bo'lib kelgan. Eng oddiy prinsiplari bir-biriga mutanosiblik, uyg'unlik, yo'sin va usullarini ajoyib qayta-qayta takrorlashuvidir. Xalq naqqoshlari naqshlarning har bir detaliga alohida e'tibor berib, uning tabiiyligini yo'qotmaganlar, har bir element ustida puxta fikr yuritganlar. Har bir naqsh negizida ma'lum ramziy ma'no singdirilgan. XI - XII asrlarda O'zbekiston hududidagi arxeologik topilmalar shuni ko'rsatadiki, jamoat binolari bezaklari ichida geometrik naqsh - "girix" ko'p ishlatilgan [39,6.42].

**Girix** - forscha, chigal, tugun degan ma'noni beradi. Geometrik naqsh to'rtburchak, uchburchak va boshqa elementlardan tashkil toptan xandasaviy naqsh turidir. Girix to'g'ri, egri va aralash chiziqlarga bo'ysundirilgan bo'lib, o'ziga xos shartlilikka ega. Bu naqsh turining keng tarqalishi bezak san'atining rivojlanishiga yangidan-yangi imkoniyatlar ochib berdi. Masalan, Somoniylar maqbarasi bezaklari 1127 yili me'mor Arslon Muxammadxon boshchiligida pishirilgan oddiy g'ishtdan har xil kombinatsiyalashtirilib ko'rilgan. Yoz faslida eng toza ganch bilan terilib ishlangan.

Xalq rivoyatlariga ko'ra, me'mor bu maqbarani ko'rgan-u, ko'zdan g'oyib bo'lgan. Imorat yaxshi cho'kib, o'rnashib, terilgan yaxlit toshga aylangandan keyin me'mor paydo bo'lib pardoz ishlarini boshlagan.

XIII asrlarda yuksak ko'tarilgan milliy madaniyatni mo'g'il bosqinchilari izdan chiqardi. 1219-1221 yillarda Buxoro, Samarqand, Urganch, Balx, Marv bosib olinib tor-mor qilindi.

XIII asrda Chingizxon hukmronligida milliy san'at birmuncha izdan chiqsada, lekin butkul yo'q qilinmadi. Temur va Temuriylar davrida esa o'zbek milliy xalq amaliy san'ati yuksak darajada rivojlandi.

XIV - XV asrlarda O'rta Osiyo xalqlari tarixida taraqqiy etgan iqtisodiy ijtimoiy tizim davrida xususiy ishlab chiqarishga asoslangan o'ziga xos iqtisodiy madaniy ko'tarinkilik ro'y berdi. Bu davrni biz xozir Alisher Navoiy, Abduraxmon Jomiy, Kamoliddin Bexzodga o'xshash juda ko'p iste'dodli adiblar, olimlar, mutafakkirlar, san'atkorlar nomlari bilan bog'liq bo'lgan Uyg'onish (Renessans) davri deb ataymiz. XIV - XV asrlarda Samarqandda tez sur'atlar bilan turli tuman inshootlar qurila boshlandi. Bu qurilishlarda Hindiston, Eron, Iroq, Zakavkaze, xullas Amir Temur hukmronligi ostida bo'lgan barcha o'lkalardan kelgan me'morlar, hunarmandlar, ustalar, san'atkorlarni ko'rish mumkin edi. Ular o'zlari bunyod etayotgan inshootlarga butun bilimlari, hunarlari va san'atkorona maxoratlarini baxsh etganlar. O'sha davrda Samarqand va Movarounnaxrning boshqa joylarida bunyod etilgan juda ko'p xashamatli

tarixiy jamoat binolarida O'rta Osiyo xalqlaridan tashqari butun yaqin va O'rta Sharq xalqlarining o'ziga xos boy, sermazmun badiiy estetik merosining sintezi qorishib, uyg'unlashib ketgan edi, desak mubolag'a bo'lmasa kerak.

Temuriylar davrida hunarmandchilik yuksak darajada rivojlandi. Amir Temur bosib olgan yerlardagi hamma ustalarni Samarqandga yig'di. U tikuvchi, toshtarosh, zargar, kulol, naqqosh va boshqa ustalarni olib kelib ishlatgan. Shu san'at turlari qatori naqqoshlik ham tez rivojlana boshladi. Temur hukmronligi ostida juda ko'p bino, masjid, Madrasa va boshqalar qad ko'tardi. Undagi bezaklar yanada badiiylashtirildi. Shaharlar atrofi bog'u bo'stonga aylantirildi. Xullas, u o'zbek milliy madaniyatini rivojlantirishda katta hissa qo'shdi. Ayniqsa, tasviriy san'at qaytadan tiklanib, tez orada rivojlanib ketdi. Devorlarda osmon sobit sayyoralar, tog'lar, dengizlar, sahrolar, odamlar, hayvonlar va boshqalar aks ettirildi. O'sha davrda tasviriy san'atning asosiy vazifasi hukmdorlarning kuch qudratini, harbiy shavkatini ulug'lashdan iborat edi [8,641]. Afsuski ko'pgina urushlar oqibatida hozirgacha qasrlardagi, turar joylardagi va jamoat binolaridagi tabiat rasmlari bizgacha yetib kelmagan. Ayrim qoldiqlariga saqlanib qolgan. Ayniqsa, oppoq ganch ustidan chizilgan gullar, manzara, qushlar tasviri nihoyatda nafis ifodalangan.

XIV - XV asrlarda koshinkorlik rivojlandi. Qurilgan jamoat binolarini koshin va parchinlar bilan bezatish avj oldi. Koshin va parchinlardan ajoyib naqshlar hosil qilishga erishildi. Chunonchi, Samarqanddagi Shoxi Zinda kompleksi, Ishratxona, Oqsaroy, Ko'xna Urganchdagi Turabekxonim maqbarasi va boshqalardir. XV asrda naqqoshlik san'ati yanada rivojlandi. Natijada naqqoshlikda kundal texnikasi paydo bo'ldi. Samarqandda Ishratxona, Oqsaroy maqbaralari va boshqa arxitektura yodgorliklarining ichki qismini kundal usulida bezaldi.

**Kundal** - arxitekturada devorga bo'rtib ishlangan bezak texnikasi. Me'morchilikda keng tarqalgan. Mo'yqalam bilan devorga surlilgan qizil kesak bo'rtma shakl oladi, ustidan bo'yoq va zarxal beradi. Zamin zarxalga asosiy bo'rtma naqsh elementlari turli tuman ranglarga bo'yaladi yoki aksincha, bo'rtma naqsh zarxalga, zamin esa turli rangga bo'yaladi.

XV asrdan boshlab Samarqaddagi Ishratxona maqbarasi, Buxorodagi Amir maqbarasi, Baland masjidida jozibador namunalar saqlangan. O'rta yerda kundal texnikasidagi bezaklar keng tarqalgan [28,6.237].

XVI - XVII asrga kelib syujetli rasmlar deyarli chizilmay balki kundal uslubidagi naqshlar bilan bezash rivoj topdi. Kundal usulida Buxorodagi Xo'ja Zayniddin xonakosi (XVI asr), Baland masjid (XVI asr), Abdulazizxon madrasasi (XVI asr) Samarqanddagi Tillokori madrasasi (XVI asr) va boshqalar bezaldi. Bunday jamoat binolarida bezalgan naqshlar o'zining badiiyligi, xarakatchanligi, o'ziga xos originalligi bilan kishini hayratga soladi. Naqshlarning har biri bir katta asar bo'lib voqelikni naqqosh tili bilan kuylayotgandek tuyuladi. Lekin, XVII asrning oxiriga kelib bir necha joyda takrorlanadigan naqshlar va mavzularning bir xilligi, tillaning xaddan tashqari sarflanganligi ko'zga tashlandi. Ayniqsa bu sohada ijodiy izlanishlar kam bo'lganligi sezildi.

XVI - XVIII asrlar orasida o'zaro ichki urushlar va nizolar madaniyatning rivojlanishiga salbiy ta'sir etdi. Bu esa milliy naqqoshchilik san'atining rivojlanishiga ta'sir etdi. Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari vujudga kelishi bilan san'atkorlar bu shaharlarga yig'ila boshladi. Shu vaqtdan naqqoshlik amaliy san'at turlari kabi gullab yashnay boshladi. Xivadagi toshxovli, Qo'qondagi Xudoyorxon o'rdasi, Buxorodagi Sitorai moxi xosa singari yirik binolar ajoyib naqshlar bilan bezatildi. Xajmli - planli naqsh kompozitsiyalari paydo bo'ldi. Bu bezaklar nihoyatda nafisligi bilan ajralib turar edi. Naqsh san'atining rang-barang rivojlanishi natijasida har shahar va vohaning o'ziga yarasha naqqoshlik maktabi paydo bo'ldi. Chunonchi Farg'ona, Toshkent, Xorazm, Samarqand va boshqalar. Ular o'zining kompozitsiyasi, rangi jihatidan va boshqa tomonlari bilan farqlanib turishni biz yuqorida ko'rib chiqdik.

XIX va XX asr boshlarida turar joy binolari, mahalla masjidleri, saroy va o'quv yurtlar binolari, choyxonalarning devor va shiftleri jimjimador naqshlar bilan bezatildi. Ayniqsa, devorlar sirtiga

daraxtlar, guldastalar, guldonli guldastalar, gulli butoqlar jonli chiziqlar bilan bezatildi. Chunonchi, Quvadagi Zayniddin boyning uyi, Toshkentdagi M.K. Ramanovlar saroyi, A.A. Polovsevning uyi, Marg'ildagi Saidaxmadxo'ja madrasasi va boshqalar, bunga misoldir [39].

O'rta asr jamoat binolarining naqshinkor ichki devorlari uch qismdan: pastki, izora qismi, (unda devorning uchdan bir qismi alohida naqsh turi bilan chizilgan yoki koshinlangan); o'rta qismi (yengil va mayda naqshlar bilan chizib bezatilgan yoki devoriy rang tasvir, ya'ni tabiat manzarasi tasviri bilan to'ldirilgan); yuqori uchunchi qismi esa (sharafa) bilan bezatilgan. Bu uchchala qismlar o'zaro zanjir naqshlar bilan ajratilgan. Eshik va deraza atrofi ham zanjirsimon naqshlar bilan hoshiyalangan.

Afrosiyobdagi Somoniylar saroyining mexmonxonasi devorlarida Sharqiy Turkiston, Shosh, Chin, Chag'oniyon va Toxariston mamlakatlaridan kelgan mexmon va elchilarning sovg'a salomlariyu, otulovlari hamda chavandozlarning ov sahnasi va boshqa manzaralar ishonarli aks ettirilgan[ 16,6.97].

So'g'd va Toxariston maxobatli devoriy rangtasvir maktabining o'ziga xos jixatlari tasvirda perspektivaning yo'qligi, tasvirning yassiligi, ufq (gorizontal) chizig'ining belgilanmaganligi, ya'ni tasvirning osmonsizligi, ranglarning sofligi, kontrastligi va o'zaro uyg'unligidadir.

### **Xulosa**

1. O'rta asr jamoat binolarining naqshinkor ichki devorlari uch qismdan: pastki, izora qismi, (unda devorning uchdan bir qismi alohida naqsh turi bilan chizilgan yoki koshinlangan); o'rta qismi (yengil va mayda naqshlar bilan chizib bezatilgan yoki devoriy rang tasvir, ya'ni tabiat manzarasi tasviri bilan to'ldirilgan); yuqori uchunchi qismi esa (sharafa) bilan bezatilgan. Bu uchchala qismlar o'zaro zanjira naqshlar bilan ajratilgan. Eshik va deraza atrofi ham zanjirsimon naqshlar bilan xoshiyalangan.
2. Sobiq Ittifoq davri O'zbekistan jamoat binolari me'morchiligida devoriy naqshlarni qullashning plafon, panno, ikonanovislik va levkoe uslublari paydo bo'ldi. Bino me'moriy shakllarining tuzilishiga qarab devoriy naqqoshlikni ko'chma namoyonlar shaklida qo'llanish tajribalari ham shakllandi.
3. XX asrning 80-90 yillarida bajarilgan naqqoshlik asarlari jamoat binolari intererlariga ishlangan rangli devoriy pannolar va shiplardagi badiiy naqshlarda namoyon bo'ladi. Bu naqshlar o'zining maxobatligi bilan ajralib turadi va tomoshabinni ulardagi tuyg'ular uyg'unligi o'ziga jalb qiladi. Masalan, Baxodir Jalolovning Baxor konsert zali foyesiga ishlagan "Raqsning tug'ilishi" devoriy kompozitsiyasi o'zbek raqqosalarini ulug'labgina qolmasdan, ularga bo'lgan samimiy hurmat va muhabbatini namoyon etgan.
4. Sobiq Ittifoq davrida ishlangan naqqoshlik asarlari o'zlarining yetukligi, kompozitsiya va rang koloritining terangligi bilan sermazmundir. Ularda Sharq va G'arb naqqoshlik an'analari o'zlashtirilib, ana shu an'analardagi mushtaraklik, uyg'unlik topilib, uni yuzaga chiqarishga muvofiq bo'lingan.
5. Mustaqillik yillariga kelib jamoat binolari intererlarini ishlashda milliy dunyoqarash va yangicha yondoshish shakllandi. Ma'nan eskirib qolgan xonalar pardozi, naqshu-nigorlari, pol va shifti, jihozlari, yoritgichlari yangilandi. Me'morchilikda devoriy suratning o'rni va interyerdagi ahamiyati oshdi. Interyerlari maxsus loyihalangan binolar qurila boshlandi. Ana shu boy meros o'rganilib undagi tajribani qo'llashga necha o'n yillardan beri urinishlar bo'lgan. So'nggi yillarda mutaxassis ustalarning chuqur izlanishlari natijasida mustaqillik inshootlari sopol koshinlar bilan bezatila boshlandi. Xalq ustalarining qadimiy koshinkorlik san'atiga monand ishlari yangi restoranlar va muzeylar binosini bezatishda amalga oshirilgan.

Istiqlol me'morchiligida bino interyerlarini maxsus loyihalar asosida ishlash tajribalari shakllana boshladi. Tomi gumbaz shaklidagi binolar interyerlarida plafon va devoriy rangtasvir suratlarini uyg'unlashtirish an'analari kuzatilmoqda.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. **Abdurazzoqov A. A.** Markaziy Osiyodagi maxobatli rang tasvir asarlari. Qadimgi va o'rta asrlar (uk. uslubiy qo'llanma) T., 2002, 42-6.
2. **Axmarov Ch.G.** Народные степные росписи в современной архитектуре Узбекистана. - T., 1954. Dissertatsiya.
3. **Axmedov M. K.**-O'rta Osiyo me'morchiligi tarixi. - T., 1997.-
4. **Azimov I.** O'zbekiston naqshu nigorlari - T., 1987.
5. **Apuxtin O.K.** Badiiy naqsh maktabi. T.; O'qituvchi, 1969.
6. **Boboev A., Karimov A.** Yangi inshootlar bilan tanishuv. Xalq so'zi, 28 avgust 2002 yilgi soni.
7. **Bobojonova G. I.** 70-yillar maxobatli rangtasviri. Dissertatsiya.- T., 1981.
8. **Borodina I. F.** Interer monumentalных сооружеий Samarkanda (konsa XIV XV vekov). L., 1965. Dissertatsiya.
9. **Borodina I.F.** Mechet Baland v Buxare. // Arxitekturnoe nasledstvo. - M., 1972.
10. **Bulatov S.** O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. - T.: Mexnat, 1991
11. **Voronina V. L.** Народные традиции архитектуры Узбекистана. - M., 1951.
12. **Donike M.** Arxitekturnyye ornamenti Sredney Azii. T., 1939.
13. **Zoxidov II. Sh.** Me'moriy san'at mo'jizalari. Moziydan sado, 1994, №1-2.
14. **Zoxidov P.Sh.** Ferganskaya rospis. - T., 1960.
15. **Zoxidov P.Sh.** Me'mor odami. - T., 1995.
16. **Karimov X.** Usto Qodir. - T., 1980.
17. **Кадырова Т. F.** Синтез архитектуры и декоративно-прикладного искусства в интерьерах зданий Консерватории. Журнал. Арх. и стр. Узбекистана, 2002, № 2-3.
18. **Maykova V.N.** Xudojestvennaya kultura narodnogo jilisha Uzbekistana. - T., 1990.
19. **Mirzaaxmedov M.** Materiallarga badiiy ishlov berish. T., 1986.
20. Naqqoshlik san'ati (pionerlar uyi va saroylaridagi, maktablardagi naqqoshlik to'garagi uchun programma). T., 1989 (Tuzuvchi K.Qosimov).
21. **Mirzaaxmedov M.A.** Boshlang'ich badiiy naqsh ishlash metodikasi. - T., 1976.
22. **Mullajnova N.J.** Некоторые вопросы пластики формы и изобразительного искусства в традиционном жимисном зодчестве Узбекистана. Uzbekiston arxitekturasi va kurilish, №1-2, 2003. 35-37 betlar.
23. **Nozilov D.A.** O'rta Osiyo dizayni tarixidan - T; O'zbekiston, 1998.
24. **Nozilov D.A.** Markaziy Osiyo me'morchiligida interer. - T., 2005.
25. **Pugachenkova G. A.** Istoriya iskusstv Uzbekistana. M., 1965.
26. **Rempel L.I.** Arxitekturnyye ornament Uzbekistana. - T., 1961.
27. **Solovev V.** tavka qal'asi devoriy suratlari. San'at, 2001, № 4.